




# ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



Google Scholar  zenodo  OpenAIRE



+998945668868

<https://innoworld.net>

2025



# INNOVATIVE WORLD

«INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLARNI QO'LLAB-  
QUVVATLASH MARKAZI

«ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA  
YECHIMLAR» NOMLI 2025-YIL № 1-SONLI ILMIY, MASOFAVIY,  
ONLAYN KONFERENSIYASI

ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI  
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ  
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

innoworld.net





## Yozma nutqni rivojlantirishga oid tajribalar tahlili

**Muhiddinova Gulchiroy Sadulloeyvna**Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va  
adabiyoti universiteti tayanch doktorantiE-mail: [gulchiroy.mukhitdinova@bk.ru](mailto:gulchiroy.mukhitdinova@bk.ru)Tel: [\(90\)3592021](tel:(90)3592021)**Annotatsiya**

O'quvchi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab yoki ehtiyoj bo'lishi kerak. O'quvchilar nutqini o'stirishning metodik talabi esa o'quvchi o'z fikrini, og'zaki yoki yozma bayon qilish xohishi va zaruriyatni yuzaga keltiradigan vaziyat paydo qilish hisoblanadi.

Tajriba sinov natijalarining amaliyotga qo'llanishi ilmiy tadqiqot qilayotgan har bir yosh olimning ilmiy ishining eng sarmahsul usuli bo'lib, u o'rganishlar natijasida, taqqoslashlar, xulosalar natijasida tug'ilgan g'oya, taqdim etilgan tavsiya va ishlab chiqilgan o'quv topshiriqlarining samaradorlik darajasini aniqlab beradi.

**Kalit so'zlar:** metodik, ilmiy tadqiqot, o'quv topshiriq, taqqoslash, ilmiy ish, tavsiya.

**Аннотация**

Для возникновения речи учащегося должно быть требование или потребность. Методическое требование для развития речи учащихся заключается в создании ситуации, в которой учащийся испытывает необходимость или желание выразить свои мысли устно или письменно.

Применение результатов опытных испытаний в практике является самым продуктивным методом научной работы каждого молодого ученого, так как в результате исследований, сравнений и выводов рождаются идеи, рекомендации и разрабатываются учебные задания, которые позволяют определить уровень их эффективности.

**Ключевые слова:** методический, научное исследование, учебное задание, сравнение, научная работа, рекомендации.

**Annotation**

For the emergence of student speech, there must be a need or necessity. The methodological requirement for developing students' speech is creating a situation that generates the desire or necessity for the student to express their thoughts, either orally or in writing.

The application of the results of experimental trials in practice is the most fruitful method of scientific work for every young researcher, as the results of studies, comparisons, and conclusions lead to ideas, recommendations, and the development of educational assignments that help determine their effectiveness.

**Keywords:** methodological, scientific research, educational task, comparison, scientific work, recommendations.

Ta'lim jarayonida til ta'limining asosiy vazifalaridan bir nutqiy vaziyatdan kelib chiqqan holda o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda bayon eta oladigan o'quvchilarni tarbiyalashdir. Bundan tashqari o'quvchilarda qabul qilingan ma'lumotlarni to'g'ri tushunish, anglash va unga munosib javob qaytara olish ham kerak.

Shu ma'noda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning turli axborot va yangiliklarga tayyorligi ularni tog'ri qabul qilish o'qib tushunish, to'g'ri munosabat bildira olish o'quvchilarning nutqiy, lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish, o'stirish va ona tili o'qitishning milliy madaniyatlarimiz va qadriyatlarimizga mos metodikasini ishlab chiqish va rivojlantirish uni tatbiq etishning yangicha yondashuvlarini joriy etish va amaliyotda sinab ko'rish muhim pedagogik vazifalardan hisoblanadi. Ona tili darsliklari tez- tez almashib turilishiga qaramasdan nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish tajriba sinovlar natijasida emas, balki darslikni yozish jarayonida tug'iladigan fikrlar asosida yaratilyapti. Yozish ko'nikmasi esa o'quvchilarda DTS talablari asosida shakllanmayapti.

Tajriba sinov natijalarining amaliyotga qo'llanishi ilmiy tadqiqot qilayotgan har bir yosh olimning ilmiy ishining eng sarmahsul usuli bo'lib, u o'rganishlar natijasida, taqqoslashlar, xulosalar natijasida tug'ilgan g'oya, taqdim etilgan tavsiya va ishlab chiqilgan o'quv topshiriqlarining samaradorlik darajasini aniqlab beradi.

Tajriba sinov ishlarining asosiy maqsadi ham, ona tili darslarida o'quvchilarning eng muhim nutqiy kompetensiyalaridan biri yozish ko'nikmasini bosqichma-bosqich samarali rivojlantirish o'quvchilarning yozish malakasini baholash jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yishdan iboratdir. Shu orqali o'quvchilar "sabab-oqibat-echim", "qiyoslash", "izchillik" qonuniyatini tushunadilar. O'qituvchilar esa o'quvchilar ko'nikmalarini shakllantirishning didaktik imkoniyatlarini o'rganish va mazkur jarayonga yangicha usullarni joriy qilish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Tajriba jarayonida o'quvchilarning matn yozishi, esse yozishi, ijodiy bayon yozishi, insho yozishi va publitsistik matn tuza olish darajasi aniqlanadi hamda baholanadi.

Tajriba-sinov ishlarining maqsadini amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar bajariladi:

- o'qituvchilar o'rtasida so'rovnoma tarqatilib o'tkaziladi,
- o'qituvchilar ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar bilan tanishtiriladi,
- ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar dars jarayoniga to'liq tatbiq etiladi,

– olingan natijalar asosida ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar takomillashtiriladi,

– ona tili darslarida yozish ko'nikmasini rivojlantirish hamda baholash, baholash orqali yozish ko'nikmasini shakllantirishning yoritilmagan tomonlari

aniqlanadi va ularni shakllantirish uchun metodik tavsiyalar beriladi.

O'quvchilar asosan yozma nutqda so'z qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolarni juda ko'p qo'llaydi:

1. so'zni noto'g'ri qo'llash;
2. so'zni noo'rin takrorlash;
3. so'zni ortiqcha qo'llash;
4. so'zni tushirib qoldirish;
5. bog'lovchi vositalar, kiritmalar bilan bog'liq xatolik<sup>1</sup>

O'qituvchilar ham yozish ko'nikmasini baholash jarayonida, nutqiy ko'nikmalarni baholashga nisbatan qiyin ekanligini ta'kidlaydi. Darsda o'qib tushunish, tinglab tushunish ko'nikmasi yuqori bo'lgan o'quvchilarda, yozish jarayoniga kelganda past baho olishi, ijodiy fiklashiga "5" baho qo'yilsa, sovodxonligiga "3" baho qo'yilishiga to'g'ri keladi. Dars jarayonida faol bo'lgan ko'plab o'quvchilarda shunday vaziyat kuzatiladi.

Ona tili darslarida o'quvchilarning yozish ko'nikmasini rivojlantirish uchun maktab darsliklarida maxsus topshiriqlar ishlab chiqilishi kerak, balki o'qituvchilar tomonidan ham e'tibor qaratilishi zarurdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. [https://uzbmb.uz/upload/file/pdf/milliytest/onatili\\_check.pdf](https://uzbmb.uz/upload/file/pdf/milliytest/onatili_check.pdf)
2. Каримов Р.Қ. Умумий ўрта таълим давлат таълим стандартлари мониторингини таъминлашнинг педагогик асослари: пед.фан.номз. ... дис. –Т.: 2006.
3. Матякубова З.Н. Ўқувчилар билимини баҳолашда кўп танлов жавобли тест тошириқларидан фойдаланиш методи (умумий биология мисолида): пед.фан.номз. ... дис. –Т.: 2000.
4. Ҳасанова Г.Қ. Бошланғич синф ўқувчиларида ўз фаолиятини баҳолаш ва ташхислаш кўникмаларини шакллантиришнинг педагогик асослари: пед.фан.номз. ... дис. –Т.: 2009.
5. Асилова Г.А. Умумий ўрта таълимда танлаш усулидаги тестлардан фойдаланишнинг педагогик шарт-шароитлари: пед.фан. номз. ... дис. – Т.: 1998.
6. Jalilov K.. Baholash nazariyasi asoslari. -Toshkent, Akademnashr 2020.

<sup>1</sup> [https://uzbmb.uz/upload/file/pdf/milliytest/onatili\\_check.pdf](https://uzbmb.uz/upload/file/pdf/milliytest/onatili_check.pdf)